



TARIX FANINI O'QITISH USUL VA METODLARI

Tohirova Muxlisa Faxriddin qizi

talaba, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xilola Nabiyeva

ilmiy rahbar, EFL instruktor,

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 2-fakulteti

Ingliz tili nazariy aspektlari 2-kafedrası

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola tarixni gumanitar fanlarning bir tarmog'i sifatida tushunishning ahamiyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, talabalarga voqealarni tarixiy bilimlar nuqtai nazaridan baholashga yordam berish zarurligini ta'kidlaydi. Unda tarixni o'qitishning asl maqsadi, o'qituvchi faoliyatining motivlari va samarali o'qitish usullarining xilma-xilligi o'rganiladi. Muhokama qilingan metodlar: (1) faol o'quv vaziyatlari: munozara, namoyish etish va simulyatsiya; (2) maxsus mavzular yondashuvi; (3) birlamchi manba materiallaridan foydalanish; (4) tarixiy filmlardan foydalanish; (5) kutubxonadan foydalanish; va (6) tarixiy adabiyotlardan foydalanish.

Kalit so'zlar: *gumanitar fan, tarix, metod, debat, simulyatsiya, tarixiy fantastika, birlamchi manba.*

Kirish

Ko'pchilik insonlar, ayniqsa, ta'lim oluvchilar uchun tarix fani yod olish imkoniyati deyarli mavjud bo'lmagan katta hajmdagi joylar, yillar va ismlar majmui hisoblanadi. Ammo yaqindan nazar solinganda esa fanning chuqur ma'nosi yuzaki faktlar bilan cheklanmaganligi ravshanlashadi. Tarixning aniq bir tarifini berish qiyin, lekin ko'plab olimlar tomonidan bo'lgan voqea-hodisalarni avlodlarga yetkazish maqsadida o'rganilgan va yozib berilganligi kundek ravshan. "Ilmi yaratilish ibtidosi va o'tmish avlodlar tarixi bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa soxtalashtirilgan yoki afsonalar bilan aralashib ketgan, chunki u uzoq o'tmishga tegishli; chunki bizni undan uzoq vaqt ajratib turadi va o'quvchi uni xotirada saqlashga va mustahkamlashga (uni chalkashliklardan saqlash uchun) qodir emas... Bizning burchimiz yaqin narsadan uzoqroqqa, ma'lum narsadan kamroq ma'lum bo'lgan narsaga qarab borish, an'analarni xabar berganlardan to'plash, ularni iloji boricha tuzatishdir." [Abu Rayhon Beruniy, p. 30] Boshqa so'z bilan aytganda tarix "alohida voqealar seriyasi" emas, balki "Bu odamlarning birgalikda yashaganlari va muammolarni birgalikda hal qilishga harakat qilganlaridir" [Johnson, N. & Ebert, J, 1991, p. 5].

Tarixning hech bo'lmaganda bir qismini o'qitish va o'rganish insonning tafakkurga ega shaxs sifatida omon qolishi uchun zarurdir. Tarixni bilish odamlarga qayerda bo'lganimiz va qayerda bo'lishimiz mumkinligi haqida yangi tasavvur berish imkoniyatiga ega. O'quvchilarni nafaqat o'tmishdagi voqealar, balki o'tmishdagi



voqealarning turli talqinlari va talqinlarni baholash vositalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish orqali o'qituvchilar ularga ulkan xizmat ko'rsatadilar! Talaba ko'pincha tarix zerikarli va ahamiyatsiz ekanligidan shikoyat qiladi. Buning sababi esa tarix fanini o'qitishning ko'p qismi arziyas narsalarni o'qishdan iborat bo'lib qolgani yoki aksariyat o'quvchilarning o'rgangan bilimlarining kundalik hayotiga tatbiq etilmayotganligida. Biroq, tarix o'qituvchilari dolzarb muammolarni muhokama qilish va bunday muammolar "asrlar davomida oldinga va orqaga" olib borishini ko'rish orqali tarixni qiziqarli qilishlari mumkin [Evans, R. W, 1989, p. 38].

Asosiy qism

Hozirda tarix fani va g'oyalarini o'quvchilar uchun mazmunli qila oladigan turli usul va yo'llar mavjudligiga qaramasdan, fan asosan professor yoki o'qituvchining markaziy darslikka asoslangan holda o'qiladigan ma'ruzasiga qattiq bog'lanib qolgan. Talabalarga tarixni turli yo'llar bilan ko'rish mumkinligini tushuntirish muhimdir [Graves, P. 1992.]. O'quvchilarni turli nuqtai nazarlarning salbiy jihatlari va zaif tomonlari haqida tizimli va tanqidiy fikrlashga o'rgatish yaxlit ta'lim berishning pirovard maqsadidir.

Faol o'rganish

Takliflardan biri o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qiladigan faol o'qitish usullaridan foydalanishdir. MakAndryus (1991) tarix kurslarida foydalanadigan quyidagi bir nechta usullarni tasvirlaydi.

Bahs-munozara (Debat)

Debat o'tkazish talabalardan ma'lum bir tarixiy muammoni tanqidiy tahlil qilishni talab qilib, o'quvchilarga tanganing ikki tomonini tanishtiradi.. Masalan, o'qituvchi o'quvchilardan "Amerika inqilobi haqiqatan ham inqilobiy bo'lganmi?" degan savolni muhokama qilishni so'rashi mumkin. Buning uchun ta'lim beruvchi tomonidan sinf ikkita alohida guruhga bo'linishi va har bir guruhga inqilobning qarama-qarshi tarixiy nuqtai nazarlarini qo'llab-quvvatlaydigan o'qish materiallari taqdim etilishi kerak. O'rganilgan materiallarga asoslanib o'qituvchi yo'l-yo'rig'i asosida bahs-munozaraga kirish, shubhasiz, talabalarga tanqidiy fikrlashga yordam beradi. [p.36]

Namoyish

O'qitishning yana bir faol usuli "Namoyish o'tkazish" hisoblanib, u "o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi tasodif va uzluksizlikni namoyish etuvchi tarixiy masalaning og'zaki bayoni"dir. [p.36-37]. Bu metoddan foydalanish orqali bir guruh talabalarning o'qituvchi rahbarligida ko'rgazmali chiqish qilishlari ko'zda tutiladi. Masalan, Lotin Amerikasi mamlakatlari o'rtasidagi chet el aloqalari mavzusini o'qitishda guruhdagi har bir o'quvchi Lotin Amerikasining biror mamlakati, aytaylik, Meksika yoki Braziliya vakiliga aylanadi. Keyin esa ushbu o'quvchilar o'z



mamlakatlarining qarashlari va siyosati haqida sinfnig qolgan a'zolariga hisobot berishadi.

Simulyatsiya (O'rganish maqsadida biror real voqea yoki vaziyatni sun'iy yaratish)

O'quvchilarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga majbur qilishning uchinchi usuli imitatsiya deb ataladi va u namoyish qilish usuliga o'xshaydi. Simulyatsiya o'quvchidan "o'quvchilar tarixiy saboq olishlari mumkin bo'lgan" [p.39] muayyan tarixiy voqealarni ijro etishni talab qiladi. Simulyatsiyaga misol tariqasida 1789-yilgi Konstitutsiyaviy konvensiyani aynan ma'lum bir o'quvchilar tashkiloti tomonidan qabul qilingan akt sifatida ko'rsatishni keltirish mumkin.

Ushbu usullarning har biri, tegishli o'quv materiali bilan to'ldirilganda, har qanday o'quvchini tarix darsini o'rganish jarayoniga jalb qila oladi.

Mavzuga ixtisoslashtirilgan yondashuv

Tarix fani mavzularini yanada qiziqarli va dolzarb qilishning boshqa usullari ham mavjud bo'lib ulardan biri kursning umumiy tarixiy mazmunini yanada "ixtisoslashgan" mavzular bilan to'ldirishdir. Bu Amerika tarixini o'rganish yuqori darajada ixtisoslashgan bo'lganidan, u "asosiy" fanlarning ko'pini o'z ichiga olishi kerak, degan ma'noni anglatmaydi, balki aksincha, o'qituvchi o'quvchilar uchun qiziqarli va mazmunli bo'lgan tarixiy ma'lumotlarni kiritishi kerakligiga urg'u beradi. Lernerning (1976) ta'kidlashicha, tarix kursiga ba'zi ayollar tarixini kiritish uzoq muddatli foyda keltirishi, ya'ni ta'lim oluvchi qizlarga "o'z qadr-qimmatini va ta'lim olish motivatsiyasini oshiradigan hayajonli intellektual tajribani" taqdim etishi mumkin [p.98].

Birlamchi manbalar

Oddiy darslikdan tashqari birlamchi manbalardan foydalanish tarixni o'quvchilar uchun "jonlantirishi" mumkin. "Birlamchi manbalar voqea yoki hodisa sodir bo'lgan joyda bevosita guvoh bo'lganlarning voqealar haqidagi hikoyalarini aks ettiradi"[Marlow, E. 1988, p.5]. Karson va Otvell (1988) deyarli har qanday narsani birlamchi manba sifatida ishlatish mumkinligini aniqlaganlar. Misol uchun, ular o'n to'qqizinchi asr oxirida "Ayollar" jurnalida paydo bo'lgan reklamalarni o'rganib chiqishganda ushbu reklamalar ayollarning jamiyatdagi roliga ma'lum munosabatni ifodalaganini aniqlashganlar. "Reklamalarda ayollar uy-ro'zg'or yumushlari va oilaga g'amxo'rliigi uchun tayinlanganligi va uy ishlari ma'lum bir yuqori standartlar to'plamiga asoslangani va talab qilingani ko'rsatilgan" Birlamchi manba materiallariga boshqa misollar: kundaliklar, gazetalar, siyosiy hujjatlar va o'sha davrga tegishli ommaviy bayonotlar. Quldorlik davrini tushuntirish uchun qullarning hikoyalaridan, dastlabki ayollar harakatini yoritib berishda esa Elizabet Kedi Stentonning yozuvlaridan, fuqarolik huquqlarini muhokama qilishda esa Martin



Lyuter King va Malkolm Xning nutqlaridan foydalanish mumkin. Bunga o'xshash misollar juda ko'p, ularning har biriga alohida to'xtalishning hojati yo'q.

Tarixiy filmlar

O'Konnor (1977) fikriga ko'ra, o'tmishning jonli manzarasini chizishda televideniye roliklari, propaganda filmlari, televizion reklama roliklari va tarixiy hujjatli filmlardan foydalanish mumkin bo'lgan bir paytda, filmlardan tarixiy o'qitish vositasi sifatida foydalanish juda e'tibordan chetda qolgan. "Ilhaq" (2020) va "Islomxo'ja" (2018) kabi filmlar tarixiy o'qitishning ajoyib vositalari bo'lib, talabalar o'rtasidagi munozaralar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. JR'S, The Name of the Rose va Man for All Seasons kabi boshqa tijorat filmlari ham, agar tarixiy haqiqatning tanqidiy ko'zi bilan qaralsa, o'rinli bo'ladi. Ushbu turdagi filmlar o'quvchilarga tarixning ba'zi boshqa turdagi shakllarini ko'rishga, "Gollivud" va tarix nima ekanligini farqlashga yordam beradi.

Kutubxona

Kutubxonadan tarixni o'qitishni takomillashtirish vositasi sifatida foydalanish ham foydali usullardan biri hisoblanib, ushbu metod kelajakda talabalarga "tarixiy tadqiqotlar uchun poydevor" yaratishi mumkin. Shu bilan birga bu yondashuv "professor-o'qituvchilar va kutubxonachilar o'rtasida yaqin hamkorlikni" talab qiladi [Reitan, E. A. 1978, p.88-89]. Ushbu metod ayniqsa o'qituvchi talabalardan ilmiy ish yozishni talab qilganda foydalidir. Donnelli (1989) katta tadqiqot kurslarida ushbu usuldan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu talabalarga kutubxonadan vosita sifatida foydalanishning ahamiyatini o'rgatadi va shu bilan birga ularni qandaydir turdagi tadqiqot loyihalarini talab qiladigan yuqori darajadagi kurslarga tayyorlaydi. Buning uchun Donnelli o'z talabalaridan muhim tarixiy shaxsni tanlashlarini va o'sha shaxs haqida biografik maqola yozishlarini talab qilgan. Biroq, ushbu metodni qo'llashda fuqarolik huquqlari, Beatniklar, abolitsionistlar, mo'tadillik harakati, jadidchilik, qatag'on siyosati kabi turli tarixiy harakatlardan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy badiiy asarlar

Tarixiy adabiyotlarning keng tarqalgan bo'lishiga qaramasdan, ular tarix kurslarida o'quv material sifatida juda kam qo'llaniladi. Jonson (1991), King (1988) va Keyn (1983) darslik va asosiy manba materiallari bilan bir qatorda tarixiy badiiy adabiyotlardan foydalanish tarixni o'quvchilar hayotiga moslashtirishning samarali va qiziqarli usuli ekanligini aniqlashgan. Ushbu tarixiy fantastikalar bir guruh odamlarning "tub ildizlari" nuqtai nazarini taqdim etib, ularning "hayotiy muammolari" va tajribalarini tasvirlaydi [Cain, L. 1983, p.26-27]. King (1988) ta'kidlashicha, o'quvchilarga asar qaxramonlarining "keyinchalik qanday munosabatda bo'lishadi, nima qilishadi, keyin nima bo'ladi" kabi masalalarda hukm



chiqarishda romanning qismlaridan, hatto butun romanning o'zidan foydalanish "o'quvchilarning tarixiy tasavvurini rag'batlantiriladi" [p.26]. Nabijon Boqiyning "Qatlнома", Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" va Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarlari darslik hech qachon bera olmaydigan tarixiy bilimlarni yetkazishi mumkin.

Xulosa

Bu yerda tavsiflangan o'qitish texnika va usullarining hech biri, agar ular insonparvarlik nuqtayi nazaridan kelib chiqib o'qitilmasa, o'quvchilarga ta'sir qilmaydi. Tarixni shunday taqdim etish kerakki, o'quvchilar uni o'z hayoti bilan bog'lay olsin va undan ma'no topsin. Tarixning birinchi maqsadi "shaxsiy o'sish... (ya'ni) o'zlik tuyg'usini va insoniyat tarixidagi o'z davri va o'rnini his qilishga intilayotgan xalqni qoniqtirishdir." Marrou (1982/83) bizga tarixni o'qitishimiz sinfdagi o'quvchilarni e'tirof etish va ijobiy qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olishi kerakligini aytadi. O'qituvchi va talabalar birgalikda savollarga javob berishlari va muammolarni hal qilishlari kerak. Asosiy maqsad - o'quvchilarni jalb qilish. Agar tarix o'qituvchilari o'zlarini mutaxassis sifatida emas, balki hamkasb o'quvchi sifatida ko'rsatganlarida edi, sinf xonasi yanada gumanitar (ijtimoiylashgan) joyga aylangan bo'lardi. Marrou davom etadi: "Talabalar har xilligini qondirish uchun kursni moslashtirish... gumanistik yondashuvdan foydalanishning muhim tarkibiy qismidir". [p.25] Ushbu yondashuv yuqorida aytib o'tilgan ba'zi usullar bilan omuxta qo'llanilib, tarixni talabalar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham ancha qoniqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi Xalqlar va Ulardan Qolgan Yodgorliklar.
2. Cain, L. (1983). Revitalizing History Teaching Through Historical Fiction. Illinois Schools Journal, 63, 24-32
3. Cannon, J. (1989, May). The Case for History. The History Teacher. 22 245-275.
4. Donnelly, S. J. (1989, February). A Term Project in Large Survey Courses. The History Teacher, 22, 117-123.
5. Evans, R. W. (1989, Winter). Social Studies Under Fire: Diane Ravitch and the Revival of History. Georgia Social Science Journal, 20.
6. King, C. (1988, April). The Historical Novel: An Under Used Resource. Teaching History 51, 24-26.
7. Lerner, G. (1976). Teaching Women's History. in Bausum, H. Ed.. Teaching History Today. 129. 1985, ED 313273.
8. Marlow, E. (1988). Teaching History in the Junior College. 10p. ED301279.
9. McAndrews, L. J. (1991, November). Tearina Down the Wall: Adventures in Active Learning. The History Teacher, 25, 35-43,
10. Reitan, E. A. (1978). New Perspective on Using the Library in History Teaching. in Bausum, H. Ed., Teaching History Today. (1985). 129p. ED313273.



11. Robert G. Weiner (1995) History: Teaching and Methods. Texas Tech University.